

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2022 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoglu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Uşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkiya)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nodir Jurakuziyev

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdolvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkey)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Inomjon Azimov

“O‘zbek yangi alifbasini tuzishda asoslar” risolasi xususida.....6

Iroda Qahhorova

Taqlid so‘zlarning o‘rganilish darajasi va tasniflanish tamoyillari.....26

Jo‘ra Xudoyberdiyev

O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi.....40

Marhabo Umurzoqova

Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili.....74

Alisher Ahrorov

O‘zbek xalq maqollarida “nutq odobi” ma’nosining
ifodalanish darajasi.....86

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Buxoro imperiyasi yoki O'zbekiston bo'ylab sayohat.....100

San'at

Gulabza Qarshiyeva

Sa'diy Sheroziy “Bo’ston” asarining Kamoliddin
Behzod ijodidagi talqini.....128

CONTENT

Linguistics

Inomjon Azimov

Regarding the manual “Rules for creating a new Uzbek alphabet”6

Iroda Kaharova

The degree of study and classification principles of imitative words26

Jura Khudoyberdiyev

Extraction of synharmonism from the Uzbek literary language.....40

Marhabo Umurzakova

The gender factor of determining the linguistic
identity in the literary text.....74

Alisher Ahrorov

The degree of expression of the meaning of “speech etiquette”
in Uzbek folk proverbs.....86

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Travel through the Empire of Bukhara or Uzbekistan.....100

Art

Gulabza Karshieva

The interpretation of the ideas of “Boston” epic of Saadi
Sherazi in the creativity of Kamoliddin Bekhzad.....128

**TARIX. MANBASHUNOSLIK
HISTORY. SOURCE STUDIES**

Buxoro imperiyasi yoki O'zbekiston bo'ylab sayohat

Shamsiddin Kamoliddin¹

Abstrakt

XVII – XVIII asrlarda ham Yevropadan Eron, O'rta Osiyo va Hindistonga ko'plab sayohatchilar kelgan. O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan va bu yerdagi xalqlar haqida batafsil ma'lumot yozib qoldirgan yevropalik sayohatchilardan biri, yunon sayohatchisi Vasilio Vatatzis bo'lib, u 1708-yildan boshlab ko'p yillar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlari bo'ylab sayohat qilgan. Vasilio Vatatzisning yunon tilida she'riy uslubda yozilgan Periegetikon ("Sayohatlar") nomli safarnomasi noyob va kam o'rganilgan manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa 1727-1730-yillarda uning O'rta Osiyo bo'ylab qilgan sayohati biz uchun alohida ahamiyatga ega. 1886-yilda safarnomaning asosiy mazmuni fransuz tilida nasriy usulda biroz qisqartirib bayon etilgan. Yaqinda uning inglizcha tarjimai ham xuddi shu shaklda amalga oshirilgan. Lekin shunga qaramasdan, bu safarnoma va undagi qimmatli ma'lumotlar O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston olimlari uchun haligacha noma'lum bo'lib kelmoqda. Quyida ushbu safarnomaning mazmuni qisqartirilgan holda keltiriladi. Safarnomadagi ma'lumotlar sayohatchining O'rta Osiyo xaritasida keltirgan izohlari bilan solishtirilgan.

Kalit so'zlar: *tarixiy manba, sayohat, safarnoma, xarita, she'riy uslub.*

Kirish

XV asrda Yevropadan Hindiston va Xitoyga olib boruvchi dengiz yo'lining kashf etilishi buyuk geografik kashfiyotlarning jadallashuviga olib keldi. Natijada Osiyo mintaqasida yangi-yangi bozorlar ochildi va xalqaro savdo rivojlandi. Bu davrdan

¹ *Kamoliddin Shamsiddin Sirojiddin o'g'li* – tarix fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

E-pochta: shamskamol@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2469-8717

Iqtibos uchun: Kamoliddin, Sh. S. 2022. "Buxoro imperiyasi yoki O'zbekiston bo'ylab sayohat". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 100–127.

boshlab Yevropada turli savdo kompaniyalari tashkil etilib, Osiyo mamlakatlariga quruqlik orqali sayohat qiluvchilar ham ko'paya boshladi. Xususan, 1548-yilda inglizlar "Moskva savdo kompaniyasi" yordamida Rossiya orqali Sharqqa – O'rta Osiyo va Eronga yo'l ochdilar. 1558-1881-yillarda ushbu sharqiy mamlakatlarga 7 marta ingliz elchilari yuborildi. Ular bilan birga savdogarlar, shu jumladan, savdo josuslari ham sayohat qilganlar [Тыпаев 2021, 84]. Xususan, Antonio Djenkinson boshchiligidagi ingliz savdogarlarining Eronga (1555-1560-yy.) va O'rta Osiyoga sayohati (1561 – 1564-yy.), shuningdek, T. Olkok, J. Renn va R.Chini (1563 – 1564-yy.), R. Jonson, A. Kitchin va A. Eduards (1565 – 1567-yy.), T. Benister va J. Deket (1568 – 1574-yy.), A. Eduards va L. Chepmen (1568 – 1569-yy.), X. Berrou (1579 – 1581-yy.) boshchiligidagi sayohatlar shular jumlasidandir [Английские путешественники 1937, 167 – 285].

XVII – XVIII asrlarda ham Yevropadan Eron, O'rta Osiyo va Hindistonga ko'plab sayohatchilar kelgan. Masalan, fransiyalik sayohatchi Fransua Bernie Hindistonga kelib, 9 yil (1659 – 1667) davomida Dehlidagi Boburiy Muxiy ad-Din Aurangzeb Olamgir I (1068 – 1118/1658 – 1707) saroyida tabib bo'lib xizmat qilgan [Бернье 2008]. Yana bir fransiyalik sayohatchi Jan Sharden 1672 – 1677-yillarda Eron va Hindistonga sayohat qilgan [Chardin 1927]. Italiyalik Florio Beneveni 1718 – 1725-yillarda rus imperatori Pyotr I ning elchisi sifatida Eron va Buxoroga sayohat qilgan [Бене-вини 1986]. Shvetsiyalik sayohatchi sharqshunos Jan Otter 1734 – 1744-yillarda Turkiya va Eron bo'ylab sayohat qilgan, 1738-yilda esa Eron shohi Nodirshoh huzuriga rasmiy elchi bo'lib kelgan [Sohrabi 2005, 631 – 660]. Iezuist missioneri Luis Bazin 1746 – 1747-yillarda Eron shohi Nodirshohning saroyida bosh tabib bo'lib xizmat qilgan [Bazin 1780, 277 – 364]. Italiyalik sayohatchi Leonardo di Santa Sesiliya 1730 – 1746-yillarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga, shu jumladan, Eronga, 3 marta sayohat qilgan [Santa Cecilia 1753, 1757]. Angliyalik sayohatchi Yonas Hanuey 1743 – 1745-yillarda Rossiya orqali Kaspiy dengizidan Eronga sayohat qilgan [Hanway 1753]. Bu davrda Usmonlilar imperiyasidan ham Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga ko'plab elchilar, savdogarlar, ayg'oqchilar va choparlar sayohat qilganlar [Özel 2018]. Bulardan tashqari XVI – XVIII asrlarda yana ko'plab yevropaliklar Yaqin va O'rta Sharq, Eron va Hindiston bo'ylab sayohat qilganlar. Mazkur sayohatchilardan faqat Antonio Jenkinson va Florio Beneveni O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilganlar va bu yerda yashagan xalqlar, ularning madaniyati, urf-odatları va tashqi ko'rinishi haqida ma'lumot qoldirganlar.

Lekin qo'shni mamlakatlar, ya'ni Persia (Eron) va Indostan (Hindiston)ga sayohat qilgan yevropaliklarning safarnomalarida ham O'rta Osiyodagi Usbeck Usbekia, ya'ni "o'zbeklar mamlakati", yoki O'zbekiston (Özbegistan) haqida ham ma'lumotlar uchratish mumkin. Masalan, Fransua Bernie yozishicha, O'zbek Tatarlari, ya'ni Samarqand va Balx xonlari, Boburiylar sulolasiga mansub sulton Avrangzeb huzuriga o'z elchilarini yuborib turar edilar. O'sha davrlarda Dehliga turli xil mevalar yil bo'yi, asosan, O'zbekiya yoki O'zbekistondan keltirilar edi [Бернье, 128-130].¹

Vasilio Vatatzis

O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan va bu yerdagi xalqlar haqida batafsil ma'lumot yozib qoldirgan yevropalik sayohatchilardan biri yunon sayohatchisi Vasilio Vatatzis (ΒΑΣΙΛΕΙΟΣ ΒΑΤΑΤΖΗΣ – Basileios Battatzis)² bo'lib, u 1708-yildan boshlab ko'p yillar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlari bo'ylab sayohat qilib, xalqaro savdo ishlari bilan shug'ullangan. Sayohatlari natijasida u o'zining safarlari haqida yunon tilida she'riy uslubda 2 qismdan iborat yo'l xotiralari, ya'ni safarnoma yozib qoldirgan. Eronda bo'lgan vaqtida u Nodirshoh saroyida ma'lum vaqt yashab, uning maxsus topshiriqlarini bajargan, shuningdek, yunon tilida uning sirati, ya'ni tarjimai holini yozgan.³ Bu asar 1748-yilda yozilgan va "Nodirshoh tarixi" deb atalgan, uning ikkinchi nomi Persica bo'lgan. Yaqinda unga bag'ishlangan maxsus tadqiqot amalga oshirilgan [Axworthy 2006, 331-343; Welsford 2009, 109-113]. Bu asar ilk bor 1816-yilda Leypsigda nashr etilgan. Daniel Filippidisning "Ruminiya tarixi"da manba sifatida muomalaga kiritilgan. Unda ilk bor Vasilio Vatatzis haqida ma'lumot ham keltirilgan. Bu asarda yozilishicha, Vatatzis yunon, lotin, arab, fors, turk va boshqa ko'p Yevropa tillarini bilgan. U Yevropa va Eron bo'ylab sayohat qilgan, Nodirshoh uni Rossiyaga elchi qilib yuborgan [Legrand 1886, 189-190]. Bundan tashqari, Vatatzis "Rim imperiyasi tarixi" nomli kitob ham yozganligi ma'lum.

1727-1730-yillarda u Kaspiy dengizi atrofidagi mamlakatlarga sayohat qilgan va uning natijasida Markaziy Osiyo mintaqasining xaritasini chizgan [Камолиддин 2005, 36-41; 2020, 54-61]. 1732-yilning oktyabr oyida Londonga kelib, uni The Royal

¹ Bu haqida tafsilot uchun qarang: Камолиддин 2020, 62 – 65.

² U haqida qarang: Bagrow 1985, 230; Tooley's Dictionary I, 96.

³ Bu asar bizning vaqtgacha saqlangan va Nicolae Iorga tomonidan Buxarestda nashr etilgan [Vasileios Vatatzis 1939].

Geographic Society ("Qirolik jug'rofiy jamiyati")ga taqdim etgan. Vatatzis mazkur jamiyatga Badaxshon konlaridan topilgan 2 ta yirik la'l toshlarini ham sovg'a qilgan. Ulardan birining vazni 830 qirot, ikkinchisniki esa 870 qirot edi. Vatatzis ularni Buxoroning o'zbek xonidan sotib olgan edi. Turklar bu toshni La'l, italiyaliklar – Balasia, boshqalar esa Rubis Balois deb atar edilar. Vatatzisning aytishicha, Rossiya hukmdori unga bu toshlar uchun 7 ming funt sterling berishni taklif qilgan ekan. Jamiyatning kotibi mister Didechi sovg'alar uchun unga minnatdorchilik bildirib, jamiyat ham ular uchun xuddi shuncha mablag' berishga qaror qilganini bildirdi.

V.Vatatzis avvalambor savdogar edi, jug'rofiya yoki xaritashunoslik uning kasbi emas edi. U tijorat bilan shug'ullanar edi, ba'zan turli xil elchilik topshiriqlarini ham bajarar edi. Shuning uchun o'zining faoliyati davomida ko'p yerlarga borishga to'g'ri kelgan. O'zining mazkur xaritasiga u Rossiya chegarasida qalmiq xonlaridan birining unga bergan yorlig'i nusxasini ilova qilgan. Bu yorliq unga safar uchun berilgan ruxsatnoma vazifasini bajargan. Yorliq xonning 2 ta tamg'asi bilan tasdiqlangan bo'lib, ulardan biri Buxoroning oltin tangasi shaklida, ikkinchisi esa Xivaning jez tangasi shaklida edi. O'sha yilning o'zida V.Vatatzis xaritasi o'rganish uchun doktor Xalliga berilgan, so'ngra Qirolik jug'rofiya jamiyati (RGS)ning xaritashunosi Jon Seneks (John Senex) tomonidan nashrga tayyorlangan va chop etilgan. Xaritadagi yozuvga ko'ra, bu xarita Buyuk Britaniyada nashr etilgan O'rta Osiyo mintaqasining ilk xaritasi bo'lgan.

Vasilio Vatatzis safarnomasi

Vasilio Vatatzisning yunon tilida she'riy uslubda yozilgan 2 qism (2064 misra)dan iborat Periegetikon ("Sayohatlar") nomli safarnomasi noyob va kam o'rganilgan manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu safarnomaning 4 ta qo'lyozma nusxasi saqlangan bo'lib, ulardan biri Britaniya muzeyida, qolgan 3 tasi esa xususiy kutubxonalarda saqlanadi.¹ Safarnomaning oxirgi nusxasi ham "Nodirshoh tarixi" (Persica) singari 1748-yilda yozib tugatilgan deb taxmin qilinadi. Safarnoma haqidagi ilk ma'lumotlar 1881-yilda yunon tilida nashr etilgan [Sariyannis 2014, 47]. Safarnomaning tanqidiy matni va fransuzcha nasriy tarjimai 1886-yilda Parijda Emil Legrand tomonidan nashr etilgan [Legrand 1886, 195-225, 226-292]. Safarnoma yaqin vaqtlargacha ham Yevropa olimlari

¹Ulardan biri (manuscript Gedeon) hozir Afinadagi Benaki muzeyida saqlanadi [Sariyannis 2014, 49].

e'tiboridan chetda qolgani yo'q [Aggelomati-Tsougaraki 2000, 155-180; Minaoglou 2007, 305-312]. 2014-yilda safarnomaning O'rta Osiyoga bag'ishlangan qismi ingliz tilida taqdim va talqin etildi [Sariyannis 2014, 47-60]. Lekin bu safarnoma va undagi qimmatli ma'lumotlar O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston olimlari uchun haligacha noma'lum bo'lib kelmoqda.

Vasilio Vatatzis haqida biografik ma'lumotlar faqat mazkur safarnomada keltirilganlardan ma'lum. Safarnomaning tanqidiy matnini tayyorlagan va uning mazmunini nasriy uslubda fransuz tilida nashr etgan Emil Legrandning yozishicha, safarnoma muallifi adabiy yunon tilining nahv va sarf qoidalarini yaxshi bilmagan. Muallif o'zini nahv va yozuv qoidalarini yaxshi bilmasligini ko'p marotaba ta'kidlaydi, balki aynan shuning uchun safarnomaning yozuv uslubi o'ziga xosdir. Safarnoma o'sha davr yunon yozuvchilari qo'llagan adabiy yunon tilida yozilmagan, balki Konstantinopolda, ya'ni XVIII asr boshida muomala vositasi sifatida ishlatilgan va turkcha so'zlar bilan qorishiq jonli yunon tilida yozilgan. Uning lug'ati qadimgi yunon tilidan o'zlashgan so'zlar qorishmasidan va jonli yunon tilidan olingan so'zlardan tarkib topgan. Lekin safarnoma matnida an'anaviy mumtoz yunon tiliga ham, XVIII asrdagi muomala tiliga ham mos kelmaydigan so'zlar uchraydi. Xullas, ushbu sayohatnomani o'qir ekanmiz, bu asar o'tish davrida, ya'ni yunon tili o'zgarib borayotgan, bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga turli tillar ta'sirida o'tayotgan bir paytda yozilganiga amin bo'lamiz [Legrand 1886, 185-188].

Vasilio Vatatzisning dastlabki sayohatlari

Safarnomaning birinchi qismida Vasilio Vatatzisning dastlabki sayohatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Unda yozilishicha,¹ Vasilio 1694-yilda Usmonlilar saltanatining poytaxti Konstantinopol (Istanbul) shahrida Bosfor bo'g'ozi qirg'og'ida joylashgan nasroniylarning Tarabya mahallasida kambag'al patriarxal cherkov ruhoniysi oilasida dunyoga kelgan bo'lib, oiladagi 5 aka-ukaning eng kichigi bo'lgan. U kambag'allar uchun mo'ljallangan maktabda o'qib, o'sha vaqtda yunonlarda an'anaviy bo'lgan eng asosiy boshlang'ich bilimlar – o'qish, yozish va hisob-

¹Safarnoma yunon tilida she'riy uslubda yozilgan, E.Legrand esa uning mazmunini fransuz tilida nasriy yo'lda biroz qisqartirib bayon etgan. Inglizcha tarjima ham xuddi shu shaklda amalga oshirilgan. Biz ham quyida ushbu safarnomaning asosiy mazmunini qisqartirilgan holda keltiramiz. Fransuzcha tarjima to'liqroq bo'lgani tufayli u bizning matnga asos qilib olindi, uning ayrim yerlari inglizcha tarjimadan olingan qo'shimchalar bilan to'ldirildi.

lashni o'rganadi. Uning otasi nasroniy cherkovining xo'jalik ishlari bo'yicha mudiri bo'lib xizmat qilgan. Vasilio yoshligidan savdo ishlariga qiziqib, shu sohada qobiliyatli ekanligini ko'rsatadi. U 14 yoshga to'lganda, ota-onasining roziligini olib, "muqaddas Hoch panohi ostida" shimol sari safarga o'tlanadi va o'sha davrda barcha patriarxal (pravoslav) nasroniylarining poytaxti hisoblangan Moskva shahrining "betakror" cherkovlarini ziyorat qilish uchun yo'l oladi. Lekin safarga ketgan xarajatlarni qoplash uchun u savdo ishlarini amalga oshirishni maqsad qilib qo'ygandi. Usmonlilar saltanatining chegarasidan shimol tomon o'tgach, Vatatzis Modaviya va Ukraina orqali Moskvaga keladi va u yerda savdo ishlari bilan shug'ullanib, 3 yil yashaydi. So'ng orqasiga qaytib, yana Ukraina, Moldaviya va Ruminiya orqali Konstanopolga keladi. Ko'p o'tmay Vatatzis yana safarga chiqib, Vengriya va Polsha orqali yana Moskvaga boradi. U yerdan Nijniy Novgorodga kelib, Volga daryosidan kemada Astraxanga yetib keladi. Bu yerdan kemada sayohatni Kaspiy dengizida davom ettirib Darband shahriga keladi. Shirvon viloyatida savdo ishlarini bitirib, orqaga qaytadi va Saratovga kelganda, kemadan tushib, sayohatni quruqlikda davom ettiradi. U Novgorod orqali Moskvaga boradi, keyin Ukrainaga va Sankt-Peterburgga yo'l oladi. So'ng Moskvaga qaytadi, va Kaspiy dengizi orqali ikkinchi marta Eronga sayohat qilib, bu safar poytaxt shahar Isfahongacha yetib boradi. Vatatzisning yozishicha, "bu yerga 1716-yilda keldim, bu paytda men navqiron 21 yoshda edim". So'ng Vatatzis Kaspiy dengizi orqali Moskvaga qaytadi, yana Sankt-Peterburgga borib, ishlari bitirgach, Kiyev va Moldaviya orqali Konstantinopolga qaytadi. Vatatzisning yozishicha, u Konstantinopolga yetib kelgan kunda, "safarga chiqqan birinchi kundan roppa-rosa 12 yil o'tgan edi". Demak, u birinchi safariga 14 yoshda chiqqan bo'lsa, ikkinchi safaridan qaytganda, uning yoshi 26 da edi. Bu ma'lumotlardan aniqlash mumkinki, Vatatzis safarga 1708-yilda chiqib, Konstantinopolga 1720-yilda qaytgan.

Safarnomaning birinchi qismida Vasilio Vatatzis o'zining dastlabki safarlari davomida kezugan shaharlar, ularning joylashuvi, diqqatga sazovor yerlari, inshootlari, odamlari, shuningdek, yo'lda uchratgan ko'chmanchi qabilalar, turli urug'lar, ularning tili, dini, madaniyati, urf-odatlar haqida ham batafsil ma'lumotlar keltirgan [Legrand 1886, 195-207]. Safarnomada Sankt-Peterburg va Isfahon singari yirik shaharlar tavsifiga ko'p e'tibor berilgan. Masalan, Isfahon shahrining tavsifiga 300 dan ortiq misra ajratilgan. Har bir o'lka haqida so'z yuritilganda, u yerda mavjud bo'lgan ajoyibotlar

(mirabilia) haqida, masalan, qimmatbaho toshlar yoki g'aroyib urf-odatlar haqida hikoya qilingan [Sariyannis 2014, 49].

Vasilio Vatatzisning uchinchi sayohati

Safarnomaning ikkinchi qismida Vasilio Vatatzisning O'rta Osiyoga qilgan asosiy uchinchi sayohati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tabiiyki, safarnomaning bu qismi biz uchun alohida ilmiy ahamiyatga ega. Shuning uchun biz bu yerda keltirilgan ma'lumotlarni barcha tafsilotlari bilan bayon etib, ularni Vasilio Vatatzis xaritasidagi ma'lumotlar bilan solishtirgan holda keltiramiz.

Safarnomada yozilishicha, Vasilio Vatatzis Moskvaga qilgan ikki-uch safaridan so'ng o'z yurtida bir oz muddat dam olgach, Oks (Oxus)¹ va Yaksart (Iaxarte) daryolari, ya'ni Amudaryo va Sirdaryo tomonlarga sayohat uyushtirishga, Orol dengizi (mer d'Aral)ni xaritadan belgilab olib, albatta u yerga borishga qaror qiladi. U 1727-yilda O'rta Osiyoga sayohat uyushtirish uchun Konstantinopolni tark etadi va Moskvaga yo'l oladi. U yerdan Astraxanga o'tadi va Buxoro tomonga o'z yo'lini davom ettiradi².

Ko'chmanchi qabilalar

"Astraxanni tark etgach, – deb yozadi Vatatzis, sayohatimiz beqiyos cho'lga duch keldi va bu cho'lda ot va tuyalardan foydalanishga majbur bo'ldik". O'rta Osiyo hududini Vatatzis quyidagicha ta'riflaydi: "Ummonday cho'zilgan bu ulkan tekislikka uyushtirgan sayohatimni qanday ta'riflasam ekan. Tekislikning g'arbiy qismi Astraxan va Volga, sharqiy qismi esa Hind dengizi bilan tutashgan. Janubda esa bu cho'llar Kaspiy dengizi (mer Caspienne) va Fors mamlakati, shimolda Sibir va Xitoy bilan tutash edi. U yerlarda ko'chmanchi qabilalar, turli urug'lar va turli din vakillari yashar edilar"³.

Shundan keyin Vatatzis mazkur hududda yashagan xalqlar, qabilalar va davlatlar haqida ma'lumotlar keltiradi. Astraxandan Sharqda joylashgan cho'lda Rusiyaga qaram bo'lgan ko'chmanchi

¹Qavs ichida matnda uchraydigan joy nomlari, xalqlarning nomlari, odamlarning ismlari va ayrim atamalarning fransuzcha tarjimada keltirilgan shakli berilgan.

²Xaritadagi izohga ko'ra, u O'rta Osiyo bo'ylab 1727 – 1730-yillarda sayohat qilgan [Batatzis 1732].

³Xaritada u bosib o'tgan karvon yo'li ko'rsatilgan: bu yo'l Astraxandan Kaspiy dengizi bo'ylab sharq tomonga ketgan, so'ng janub tomonga yurib, Orol dengizining g'arbiy sohili bo'ylab Ko'hna Urganch shahriga yetgan. Bu yerdan yo'l yana sharq tomonga yurib, Xiva shahriga, u yerdan esa janubga yurib, Xurosonga olib borgan [Batatzis 1732]. XVII – XVIII asrlarda bu yo'l Rossiyadan janubdagi Sharq mamlakatlariga, shu jumladan, O'rta Osiyo va Eronga olib boruvchi asosiy karvon yo'li bo'lgan [Poujol 1988, 37-48].

qalmoq yoki qalmiq (Kalmouks) qabilalari yashar edilar.¹ “Ehtimol, – deydi u, qalmiqlar massagetlar (Massagetae) avlodidan bo'lgan.”² Ular son-sanoqsiz jangchilarga ega bo'lib, ularda qo'y-sigir va otlar juda ko'p edi. Odatda ular Volga bo'yida kun kechirsalar-da, ba'zan Sharqdan ancha uzoqlarga ham ko'chib ketar ekanlar. Ular urug'dagi eng martabali bir boshliqqa bo'ysunar, u esa mashhur Ayuka (matnda: Αἰουκά – tarjimada: Ayouka)³ning vorisi bo'lib, uning oilasiga mansub edi. Aytishlaricha, ular faqat nomiga Rusiyaga qaram edilar. Ularning diniy e'tiqodi butlarga sig'inish edi, cho'lda yurganlarida o'zlari bilan shunday butlarning ko'pini olib yurar edilar. Bu butlarni ular “manji” (μαντζήδες – mandjis) deb atar edilar.⁴ Barcha ko'chmanchilar singari qalmiqlar ham hayvonlarning go'shtini yer va mollarning sutini ichar edilar, o'zlari ovlagan hayvonlarni ham pishirmasdan iste'mol qilar edilar. “Qalmiqlarning ayollari, – deb yozadi Vatatzis, kerak bo'lganda, erkaklar singari qo'lga qurol olar ekan. Xudoning o'zi bizni qo'llab, xavf-xatar va yo'qotishlarsiz bu o'rda hududidan o'tishimizga yordam berdi”.⁵

Safarnomaning birinchi qismida ham qalmiqlar haqida ma'lumot keltirilgan: [Volga daryosining] “chap qirg'og'ida daryoning quyilishigacha, mamlakat tekislik hisoblanadi, qolgan qismi esa, haqiqatda, ham Sibir, Xitoy va Buxoro hudularigacha cho'zilgan katta cho'lning boshlanish qismidir. Daryo bo'ylaridagi tekisliklarda Ayuka (Ayouka) hukmronlik qiluvchi Qalmiqlar (Kalmouks) yashar edi. Bahor oylarida bu ko'chmanchi qabilalar suv tanqisligi sababli Volgadan unchalik uzoq bo'lmagan erlarga kelib o'rnashar

¹Xaritada qalmiqlar (KAAMOUKOI) nomli ko'chmanchi qabilalar qayd etilgan. Ular ikki yerda yashagan: Astraxan (ΑΣΤΡΑΧΑΝ – *Astrachan*)dan sharqqa ketuvchi karvon yo'lidan shimolda, va mazkur yo'ldan janubda Kaspiy dengizining shimoliy sohilida. Shimoliy qalmiqlarning hukmdori Agyujaxon (*Agiucachan* – Αγιώσαχαν), janubiy qalmiqlarning hukmdori esa Dortzis (*Dortzis* – Δορτζίς) deb atalgan [Batatzis 1732, 1, 2].

²Vatatzis u yoki bu xalq haqida so'z yuritarkan, ba'zilarining qaysi qadimgi xalqlarning avlodi ekanligini ham yozgan. Masalan, qalmiqlar massagetlarning, turkmanlar xunlarning avlodi deb taxmin qiladi.

³Ayuka (Ayushi) 1669/72 – 1690-yillarda qalmiqlarning 4-bosh tayshisi bo'lgan, 1690 – 1724-yillarda esa qalmiqlarning xoni bo'lgan. 1722-yilda u Saratov yaqinida rus imperatori Petr I bilan uchrashib unga tobeligini tasdiqlagan. Uning ismi turkcha *ayu/ayuq* – “ayiq” so'zidan olingan.

⁴Bu atama (*mandjis* yoki *manjis*) buddaviy diniga e'tiqod qiluvchilarda eng oliy diniy martaba Dalai Lamadan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi diniy martabani anglatgan [Sariyannis 2014, 53-54].

⁵Qalmiqlarning ovqat, pishirilmagan go'sht yeyish odatlari, shuningdek, ularda ayollarning erkaklar bilan birga urushlarda qatnashishi haqida XVI asrda yashagan turk tarixchisi Cayfi Chelebi ham yozgan [Matuz 1968, 74-76]. XIX asr boshlarida yashagan bir yunon rohibi “Rusiya imperiyasida yashovchi qalmiqlar”-ni odamlarni yeyuvchi xalq deb ta'riflagan [Sariyannis 2014, 50, 13]. Xaritadagi qalmiqlarga tegishli izohda ularning ayollari haqida hech narsa deyilmagan.

edilar. Agar ba'zida ular ko'rinmay qolsalar, demakki bu hududning ichkarisiga kirib ketganligidan dalolat beradi. Qalmiqlar o'tovlarda yashar edi, ularning mol to'dalari ko'p va shu orqali tirikchiligini o'tkazar edilar"¹ [Legrand 1886, 199].

"Cho'lda yurishni davom ettirsak, – davom etadi Vatatzis, yuqoridagi qabilaga o'xshab ketuvchi yana bir boshqa qabila kun kechirar edi. Ularni ham Rusiyaga tobe deb aytadilar, biroq ular mustaqil edilar. Axir bu qabilalar qanday qilib birovga tobe bo'lishi mumkin ekan, zero ular bu kengliklarda osmondagi bulutlar singari erkin suzishayotgan bo'lsa ... Bunday keng hududda ularni bo'ysundirish, dengizdagi tutqich bermas baliqlarni bo'ysundirishdanda qiyinroqdir"²

Qalmiqlardan shimolda, ulardan ancha katta masofada islom diniga e'tiqod qiluvchi boshqirdlar (Baskirs) nomli tatar qabilasi (tribu tatare) yashagan.³ Ularning bir qismi ko'chmanchi bo'lsa, qolganlari o'troq hayot tarzi olib borar edi. Rusiya chegarasida yashovchi boshqirdlar shu imperiyaga qaram edilar.⁴

Ulardan janubda Kaspiy dengizi (Mer Caspienne) bo'ylaridan to Fors (Perse) chegaralariga qadar bo'lgan hududlarda bir nechta qabilalardan iborat turkmanlar (Turcomans, Turkmènes) yashar edilar.⁵ Ular islom diniga e'tiqod qilar edilar. Vasilio Vatatzisning ta'kidlashicha, turkmanlar xunlar (Huns)ning boshqa bir xilini eslatar edi. Ular juda jangovor bo'lib, kuchli otliq askarlarga ega edilar. Ular ochlik, suvsizlik va jazirama issiqqa juda bardoshli edilar. Ularga qarashli yerlarning katta qismi qumli cho'ldan iborat bo'lib, sharqda Hindiston (Indes)gacha cho'zilgan edi. Ba'zi yerlarning kengligi bir oylik yayov yo'lga teng bo'lsa, ayrim yerlari undan ham ko'p keng edi. Cho'lning chap qismida, shimolroqda Xiva xonligi

¹Xaritadagi izohlarga ko'ra, "qalmiqlar (*Salmuci* – *Καλῳκόι*) juda ham kuchli Rusiya imperiyasi imperatorining mustabid hokimiyatiga qaram edilar. Bu ko'p sonli xalq o'tovlarda yashar edi. Ular urushga moyil. Ularda chorva-mollar ko'p. Ular mollarning go'shti va sutini iste'mol qiladilar, ov ham qiladilar. Kiyimlari mo'ynadan tikilgan. Ularning dini ko'p xudolik. Ularning hukmdori hokimiyatni meros qilib olish huquqiga ega" [Batatzis 1732, 1].

²Xaritadagi izohga ko'ra, janubiy qalmiqlar (*Salmuci* – *Καλῳκόι*) ham Rusiya imperiyasiga qaramdirlar. Ularning urf-odatları, dini yuqorida aytib o'tilgan shimoliy qalmiqlarniki bilan bir xil. Ularning hukmdorining ismi Dortzis (*Dortzis* – *Δορτζις*) edi. "Men o'sha urushqoq odamlar yashaydigan keng yerlardan xavfsiz o'tmoqchi ekanligimni aytib, undan [maslahat] so'raganimda, – deb yozadi Vatatzis, hukmdor menga qalmiqlar yozuvi bilan yozilgan va uning shaxsiy tamg'asi bilan muhrlangan yorliq berdi".

³Boshqirdlarning kelib chiqishi haqida qarang: Golden 1992, 397-399.

⁴Xaritada ΜΡΑΣΚΙΡΟΙ (*Baskiri*), ya'ni boshqirdlarga berilgan izohga ko'ra, ularning "dini – islom, Rusiya imperiyasiga qaram edilar" [Batatzis 1732, 2].

⁵Turkmanlarning kelib chiqishi haqida qarang: Golden 1992, 399 – 401.

(royaume de Khiva), undanda uzoqroqda Buxoro xonligi (celui de Boukhara) joylashgan edi. Turkmanlar asosan talon-tarojlik va qaroqchilik bilan kun kechirar, ba'zida ov ham qilib turar edilar. O'ng tomonda ular Fors chegaralariga hujum qilib, ba'zan ochiq, ba'zan esa hiylali urushlar olib borar edilar. Chap tomonda esa ular Xiva va Buxoro xonliklari (khanats de Khiva et de Boukhara) chegaralariga hujum uyushtirib turar edilar. Fors hukmdori Nodirshoh (Nadir chah) to'lov evaziga ko'p sonli turkmanlardan foydalanar edi.¹

Qalmiqlardan ancha uzoqroqda, sharq tomonda ko'chmanchi qoraqalpoqlar (Qaraqalpaq) yashar edilar. Ular tatarlardir,² ko'p sonli, jangovor, talonchi va qaroqchilikni yoqtiruvchi xalq edi. Qoraqalpoqlar din haqida sayoz tushunchalarga ega: ular faqat payg'ambarlari Muhammad (Mahomet) ekanligini bilar edilar. Qoraqalpoqlarni boshqaruvchi kishi deyarli podshoh (roi) maqomiga ega bo'lib, u ovoz berish yo'li bilan tanlanar edi. Biroq uni saylashda barcha oddiy xalq vakillari ishtirok etmasdan, faqat "mirzalar" saylar edilar.³

Ushbu qabila bilan yonma-yon qozoq (Qazaq) qabilasi yashar edi.⁴ Ular qoraqalpoqlar bilan deyarli bir xil urf-odat, bir tilga ega va bir dinga e'tiqod qilar edilar, boshliq tanlashda ham yuqorida aytilgan odatga ko'ra saylov qilar edilar. Qozoqlar qoraqalpoqlar bilan doim ahillikda yashar edilar.⁵ Boshqalar bu ikki qabilani ko'pincha bitta nom bilan "qirg'izlar" (Qirghiz) deb atar edilar.⁶ Ular asosan

¹Xaritada turkmanlar faqat Xuroson tog'laridan shimoldagi TETZENT (Tejen) nomli hududda yashaganligi ko'rsatilgan. Izohda esa ular haqida shunday yozilgan: "Turkmanlar (*Τωρκμάνοι* – *Turcomanni*) islom diniga e'tiqod qiladilar. Bu ko'p sonli xalqning o'z qonunlari bor, ular boshqa xalqlardan alohida o'tovlarda jamoa va urug' bo'lib yashaydilar. Ular juda ham urushqoq va harakatchan xalq, otda yurish san'atini juda yaxshi egallaganlar. Shuning uchun ularning tabiiy go'zalliligiga ularning otlari yana tezlikni ham qo'shimcha qiladilar. Bundan tashqari ular ov qilish, qo'shni xalqlarni talon-taroj va xarob qilish bilan ham shug'ullanadilar" [Batatzis 1732].

²Qoraqalpoqlarning kelib chiqishi haqida qarang: Golden 1992, 403-404.

³Xaritada qoraqalpoqlar (ΚΑΡΑΚΑΛΠΑΚΟΙ) yashagan yerlar Orol dengizidan shimolda joylashgan NTAG (Ust-yurt) nomli viloyatdan shimoli-sharqda ko'rsatilgan. Ularga tegishli izohda ular haqida shunday yozilgan: "Qoraqalpoqlar (*Cara-Calpaci* – *Καρακαλπάκιδι*) ko'p sonli xalq, urushga moyil. Ularning o'z hukmdori bor, lekin ular hech qachon unga bo'ysunishni istamaydilar, va unga hurmatsizlik bilan qo'pol muomala qiladilar. Ular xuddi qalmiqlar singari yashaydilar. Ularning dini – islom" [Batatzis 1732, 3].

⁴Qozoqlarning kelib chiqishi haqida qarang: Golden 1992, 402-403.

⁵1723 – 1725-yillarda qozoqlar va qoraqalpoqlar ittifoq tuzib, ularning yerlarini bosib olgan jung'orlarga qarshi kurash olib borganlar [Монсеев 1991, 84].

⁶Xaritada qirg'izlar (ΚΗΡΚΙΖΟΙ – *Kuryizi* – *Curgizi*) Koshg'ardan shimolda yashovchi va *Condosidae* hukmiga bo'ysunuvchi alohida bir ko'chmanchi qabila sifatida ko'rsatilgan [Batatzis 1732, 7]. O'sha davr rus adabiyotida qozoqlar "kirgis" yoki "kirgis-kaysak" deb atalgan. "Qirg'iz" nomining ishlatilishi haqida qarang: Golden 1992, 404-406.

Orol dengizi (mer d'Aral) va Yaksart (l'Iaxarte) daryosi bo'ylarida ko'chmanchilik qilib kun kechirar edilar.¹

Orol dengizi (mer d'Aral)ning o'ng, ya'ni janub tomonida orolliklar (Araliques) nomli bir qabila yashar edi. Ular ham tatarlarning bir turi edilar.² Ular Orol dengiziga juda yaqin yerlarda yashar edilar, ularning boshlig'i (mirza) esa bir kichik qishloqda yashar edilar. Ular ham islom diniga e'tiqod qilar edilar. Bu hududning o'ng tarafida Orol dengiziga Oks daryosi quyilar edi.³

Bu ulkan tekislikning sharqida, qozoqlardan ancha uzoq masofada ko'chmanchilarning yana bir turi, qalmiqlarga o'xshab ketuvchi qunduzlar (Qoundouz)⁴ yashar ekan. Ularning yuz ko'rinishlari qalmiqlarga juda o'xshab ketar edi. Qunduzlarni boshqaruvchi kishi ular ustidan mutlaq hokimiyatga ega edi. Uning barcha,

¹Xaritadagi izohga ko'ra, qozoqlar (KAZAKOI) qoraqalpoqlardan janubda, Orol dengizidan sharqda va Sirdaryodan shimolda yashaganlar. Qozoqlarga tegishli izohda ular haqida shunday yozilgan: "Qozoqlar (*Cazaci* – *Καζάκοι*) ham musulmon, ular hamma narsada qoraqalpoqlarga juda o'xshaydilar. Ular bilan do'stona munosabatda, va urush bo'lganda, ularga yordam beradilar. Ularning soni juda ko'p, ular urushni shunchalik yaxshi ko'radilarki, hatto ularning xotinlari ham, kerak bo'lganda, qurol bilan jang maydoniga chiqadilar. Buxoroda urush ayni qizigan vaqtda men shunday qurolli xotinlardan ikkitasini ko'rganman. Buxoroliklar boshqa ko'plab askarlar bilan birga ularni ham asirga olib, shaharga olib kelganlar, ularga juda ham qo'pol va shafqatsiz, odamgarchilikdan yiroq shaklda muomala qilganlar" [Batatzis 1732, No. 4].

²O'rta Osiyodagi "Orol-Kaspiy qipchoqlari" turkumiga kiruvchi xalqlar ichida "orolliklar" qayd etilmagan [Golden 1992, 401]. "Persica" ("Nodirshoh tarixi")da orollar Nodirshohga qarshi kurashda Xiva xonining ittifoqchilari qatorida tilga olingan. Safarnoma matnini tadqiq etgan yunon olimi Marinos Sariyannisning fikriga ko'ra, bu yerda *mang'it* (*no'g'ay*) qabilasi nazarda tutilgan. Bu vaqtda ular Amudaryo quyilish yerining o'rtasida Orol dengizidan janubda yashaganlar. Shoh-Temir ularning asosiy qal'alaridan biri edi. Ikkinchi qal'a Mang'it-qal'a deb atalgan. Manbalarida Shoh-Temur ismli shaxs ham qayd etilgan. U turkman hukmdori Musaxonning o'g'li bo'lib, otasi xivaliklar qo'liga o'lgani uchun 1725-yilda ularga qarshi isyon ko'targan [Sariyannis 2014, 51].

³Xaritadagi izohga ko'ra, orollar (ΑΡΑΛΟΙ) nomli ko'chmanchilar Amudaryoning quyi oqimida uning Orol dengiziga quyilish yeri yonida uning o'ng sohilida, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yashaganlar. Orollarga tegishli izohda ular haqida shunday yozilgan: "Orol deb ataluvchi bu xalq (*Hæc gens Arali dicta*) musulmonlardir, ular Orol dengizi yaqinida o'tovlarda yashaydilar. Ularga qarashli bo'lgan hudud kichkina, men u yerda bo'lganimda, ularni Satemir-sulton (*Satemir sultan*) ismli xon boshqargan" [Batatzis 1732, No. 13].

⁴ Bu nomning Afg'onistondagi Qunduz shahriga hech qanday aloqasi yo'q. Bu yerda o'sha davrda, ya'ni XVIII asr boshida Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng asosiy harbiy-siyosiy kuchlardan biri bo'lgan jung'arlar nazarda tutilgan. V.Vatatzis xaritasida ular ΚΟΝΔΟΣΙΔΕΣ (*Sondosidis*) deb atalgan, ularni qoraqalmiq (*καράκαλμωκ* – *Caracalmucos*) deb ham ataganlar. Ular shimoldan janubga cho'zilgan tog'li o'lka (Tangritog')da yashaganlar [Batatzis 1732]. Inglizcha tarjimada ularning nomi Kondos qabilasi (Kondos tribe) deb tarjima qilingan. O'sha davrga mansub boshqa xaritalarda qoraqalpoqlar va Kondos orasida Calmucs Blancs, Calmuci Albi, ya'ni "Oq qalmiqlar" qayd etilgan [Sariyannis 2014, 53]. Jung'arlar va ularning xonligi haqida qarang: Моисеев 1991, 31 – 54.

hatto eng ayovsiz buyruqlari ikkilanmay bajarilgan. Qunduzlar jangda mardlarcha kurashib, dushmanga qarshi qonxo'r hayvonlar singari jasorat bilan hujum qilganlar. Bir paytlar ular Xitoy (Chine)-ni ham zabt etganlar. O'shanda Xitoyda hokimiyat ikki imperator¹ o'rtasida bo'lingan bo'lib, ichki ziddiyatlar kuchaygan, vatandoshlar urushi avj olgan, aholi ikki muxolif qismga bo'lingan edi. Shunda imperatorlardan biri o'sha vaqtda unga qo'shni bo'lgan qunduzlarni yordamga chaqirgan. Qunduzlarning son-sanoqsiz qo'shini Buyuk Devor (la Grande Muraille)dan oshib o'tib, dushman qo'shinini tor-mor qilgan. Natijada imperator o'z xatosi qurboniga aylangan va boshqarib turgan hokimiyatidan ham quruq qolgan. Ularning vorislari hozirgacha Xitoyni boshqarib kelmoqdalar.² Qunduzlarga qaytsak, Buyuk Lama (le Grand Lama) aynan ulardan edi.³

Qunduzlardan ancha yiroqda, sharq tomonda yana bir ko'chmanchi qabila, Azof qabilasi (tribu d'Azof)⁴ yashar edi. *Ular hamma narsada Kondos qabilasiga o'xshash bo'lib⁵, qadimda Buyuk Lama ularda bo'lgan deb da'vo qilar edilar. Bu o'rda (horde) yerlarida ravoch (rhubarbe – rhubarb) o'sar edi. Mazkur cho'lning adog'i yo'q bo'lib, yuqorida aytilganidek, u bir tomondan Xitoy (Chine)gacha, janubda Hindiston (Indes)gacha va sharqda ummon (l'océan)

¹ Matnda ularning ismi Κίνα yoki Κίταϊον, ya'ni Kina va Xitoy deb berilgan [Sariyannis 2014, 53].

² Bu yerda 1645 – 1911-yillarda Xitoyda ham hukmronlik qilgan manchjurlarning Sin imperiyasi nazarda tutilgan. "Persica" ("Nodirshoh tarixi")da ham xuddi shu ma'lumot keltirilgan, lekin u yerda qunduzlar (qopaqalmiqlar) o'rniga Μανζούροι – Manzouroi (manchjurlar) yoki Kalmuk – Καλμούκοι (qalmiqlar) ko'rsatilgan. Ularga qaram bo'lgan xalq Νικάνοι yoki Μάντζοι deb atalgan. Birinchi atama XVIII asr boshlarida Farg'ona vodiysida hukm surgan o'zbeklarning *ming* qabilasiga, ikkinchisi esa o'sha davrda Qirat (Jung'or) xonligida hukm surgan *manchu* qabilasiga tegishli bo'lishi mumkin [Sariyannis 2014: 53]. Qirat/Qalmiq/Jung'or xonligi haqida qarang: Golden 1992, 315-316, 344-345; Soucek 2000, 169-173.

³ Buyuk Lama (Dalai Lama) – Markaziy Osiyoda buddaviylik diniga e'tiqod qiluvchilarning eng oliy ruhoniysi. Uning qarorgohi 1391-yildan boshlab Tibet poytaxti Lxasada bo'lgan. Shu vaqtgacha jami 14 ta Dalay Lama bo'lgan. Safar-nomaning shu yerida Dalay Lama VII (1708 – 1757) to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan. Lekin Emil Legrand negadir bu ma'lumotlarni o'zining tarjimasiga kiritmagan [Legrand 1886, 213].

⁴ Inglizcha tarjimada bu qabilaning nomi Azof yoki Zof deb berilgan [Sariyannis 2014, 54]. V.Vatatzis xaritasining eng sharqiy chekkasida ko'chmanchilarning o'tovlari bilan to'la ZOΦXANNΣ nomli hududning g'arbiy qismi ko'rsatilgan. Unga tegishli izohda shunday yozilgan: "Zofxan (*Zofchan* – Ζοφχαν) bu *Condosidae* ga o'xshash bo'lgan bir xalqning yetakchilaridir. Bu odamlar o'tovlarda yashaydilar. Ularning yerida Rhabarbarum [nomli o'simlik] o'sadi. Shuningdek, ular burun zamonlarda Dalaylama ularning orasida tug'ilgan, deb da'vo qiladilar" [Batatzis 1732, No. 6].

⁵*... Bu jumla fransuzcha tarjimada yo'q.

qirg'oqlarigacha cho'zilgan edi.¹

Janub tomonda Buxorodan Kobul (Kaboul)ga olib boruvchi karvon yo'lida, ya'ni Sug'diyona (Sogdiane) bilan Hindiston orasida o'tovlarda "qipchoqlar" (Qipchaq) deb nomlanuvchi o'zbeklar (Uzbeks) qabilasi yashar edi.²

Orol dengizi

"Astraxandan jo'nab ketganimizdan 6 – 7 kun o'tgach, – deb yozadi Vatatzis, biz bir dengizga yaqinlashdik. Bu dengiz haqida qadimiy tarixchilar hech narsa bilmaganlar, hozirgi tarixchilar ham uning mavjudligini inkor etar edilar. Men Orol dengizi (mer d'Aral) haqida so'z yuritmoqchiman. Bu dengizga yetib kelganimizda uning suvlari boshqa dengiz suvlaridek sho'rligiga amin bo'ldim. Uni aylanib chiqish uchun esa 30 kun kerak bo'lar ekan. Oks va Yaksart daryolari shu dengizga quyilar ekan. Qadimgi tarixchilar aytganlaridek ular Kaspiy dengizi (mer Caspienne)ga quyilmas ekan. Bu ikki dengiz orasidagi masofa anchayin uzoqligiga hech qanday shubham yo'q."³

"Yuqorida aytib o'tgan Orol dengizini birinchi bo'lib, Yevropaga men tanitdim, – deb davom etadi Vatatzis. Aniqlagan kashfiyotlarim natijalari Londonda jo'g'rofiy tadqiqot olib borayotgan barcha olimlar e'tiborini o'ziga qaratdi."⁴

¹Xaritada izohga ko'ra, "*Condosidæ* (*Kovδόςι*) ko'p sonli xalq, ular urushni yaxshi ko'radilar, ularning urf-odatlar, hayot tarzi, dini qalmlar (*Calmukis* – *Καλμύκων*)nikiga o'xshaydi. Ularning hukmdori o'zining shaxsiy qonunlarini o'rnatgan, u mustaqil oliy hukmdor va hech kimga qaram bo'lmasdan hukm suradi. Bu mulkda hokimiyat meros qilib qoldiriladi. Ularda Dalaylama (*Dalailama* – *Δαίλαμα*) nomli shaxs bor, u diniy ishlarga mas'ul bo'lib, barcha ko'pxudolik diniy marosimlarini o'zining qarori bilan amalga oshiradi. Ular unga bo'ysunadilar, chunki ishonuvchandirlar, shuningdek, ular qo'rqib, uning mo'jizalar qilishiga ishonadilar. Ularning aytishicha, u [borgan sari] yosharib boradi va bu badaviylar u haqida deydilarki, u vaqt [va zamonlar] uzra xohlaganicha harakatlana oladi. Ular bunga o'xshash [turli xil] bema'niliklarga to'la yana ko'p hikoyalarni so'zlaydilar" [Batatzis 1732. No. 5].

²Xaritada MPOUXARIA – *Bucharia* (Buxoro) va KAMPIA – *Cabil* (Kobul) shaharlari orasida Ὠξος – *Oxus* (Amudaryo) yuqori oqimi havzasida, daryoning chap tomonidagi ulkan tog'lar (Pomir va Hindukush)ning shimoliy va sharqiy yonbag'rlarida ko'chmanchi o'zbek qabilasining katta ovuli joylashgan. Unga tegishli izohda *ex Uzbekus secnitae vel Nomades* – "o'zbek qabilalari yoki ko'chmanchilaridan [biri]" deb yozilgan [Batatzis 1732]. Bu hudud hozirgi Afg'onistondagi Badaxshon tog'li o'lkasiga to'g'ri keladi.

³Xaritada Orol dengizining ichida yunoncha ΘΑΛΑΣΣΑ ΑΡΑΛ (Orol dengizi) degan yozuvning tagidagi yozuvda shunday yozilgan: "Orol dengizi (Mare Aral) aylanisini bir oy davomida piyoda kezib chiqish mumkin. Uning suvi boshqa dengizlarnikidek juda ham sho'rdir" [Batatzis 1732].

⁴Xaritada keltirilgan ma'lumotga ko'ra, Vatatzis Londonda 1732-yilning oktyabr oyida bo'lgan [Batatzis 1732].

Xiva xonligi

“Astraxandan chiqqandan keyin 62 kun yo'l yurib, nihoyat Xiva (Khiva)ga yetib keldik, – deb yozadi Vatatzis. Bunday xatarli va charchoqli sayohatni kim ham hikoya qilib beradi deysiz? Shu 62 kun ichida biz xuddi ummonda adashgandek bo'lib qoldik. Ko'zimizga faqat osmon va yer ko'rinar, daraxtlardan asar ham yo'q: bu cho'lining adog'i yo'qday tuyulardi. Bu cho'lda biz son-sanoqsiz yurgan yovvoyi hayvonlarning podalariga duch keldik. Bular: echkilar, qo'ylar, otlar, kiyiklar, undan tashqari zaharli hashoratlar va yirtqich hayvonlar edi. Bunday katta sayohatda eng qiyini suv muammosi edi. Ba'zida 5 – 6 kunlab suvni uchratmasdik, shuning uchun tuyalarda meshga suv solib yurardik. Mabodo falokatga uchrab yo'ldan adashadigan bo'lsak, butun karvon bunday keng sahroda suvsizlikdan halok bo'lishi aniq edi. Jonimiz sog'-omon bo'lsa-da, xuddi murdalardek holatda Xivaga yetib keldik.”

“Xiva tomon sayohatimiz davom etarkan, – davom etadi Vatatzis, Orol bo'ylab ancha kun yo'l yurdik. Oks (l'Oxus)¹ning chap qirg'og'ida yo'limizni davom ettirib, Xudo yordami bilan Xiva shahriga yetib keldik.”

Oks daryosiga qarama-qarshi tarafda, uning o'zaniga yaqin yerlarda bir tatar² davlati (un royaume tatare), Xiva xonligi (khanat de Khiva) joylashgan edi. *U O'zbek (mamlakati)ning bir qismi edi.³ Bu yurt aholisi davlat boshliqlarini “shahzoda” (prince), “shoh” (roi), “xon” (khan) va “podshoh” (padichah) deb atar edilar. Barcha xivaliklar musulmon bo'lib, islom diniga kuchli e'tiqod qilar va Qur'onni osmondan yuborilgan muqaddas kitob deb sanar edilar. Ularning mustahkam devorlar bilan o'ralgan shaharlari, shuningdek, ochiq shaharlari ham bor edi. Ular, asosan, savdo-sotiq bilan shug'ullanar, zarurat tug'ilganda esa jasur jangchi edilar. Xiva xoni o'zining tangalarini zarb etar edi. “Men Xivada bo'lganimda, – deb yozadi Vatatzis, u yerda hukm surgan hukmdor (Le souverain

¹ Ahamiyatlisi shuki, Vatatzis Amudaryoning yunon adabiyotida ishlatilgan qadimgi nomini ham ishlatgan, xaritada zamonaviy nomini ham keltirgan: Midergias – *μίδεργίας* (Amudaryo).

² XVI – XVIII asrlarda yevropaliklar turkiy tilli xalqlarni Tartar, ya'ni “tatar”, ular yashagan hududlarni esa umumiy nom bilan Tartaria, ya'ni “Tatariya” deb ataganlar.

³ *...Bu jumla fransuzcha tarjimada yo'q. Lekin inglizcha tarjimada “part of the Uzbek” (μέρος του Ουζμπεκίου) deb keltirilgan [Sariyannis 2014, 51].

qui régnait à Khiva), Elbarsxon (Ilbars khan)¹ deb atalar edi.”²

Oks suviga to'xtaladigan bo'lsak, – deb davom etadi Vatatzis, – bu daryo boshqa daryolardan ustun qo'yiladi, hatto uni “muqaddas daryo” deb ham ataydilar. Xullas, butun olamda suvining tozaligi va ichishga yaroqliligi bilan tenglasha oladigan yana shunday boshqa daryo bo'lmasa kerak. Xivaliklarning uzoq umr ko'rishi balki Oks suvlari tufaylidir, chunki xivaliklar orasida 70-80 dan oshgan kishilar ham charchoqni yosh yigitlardek yenga olar ekanlar, ular bemalol ot choptirar va doim jangga tayyor turar ekanlar. Xivaliklar shu suvdan iste'mol qiladilar, shu bilan birga undan ekinlarini sug'orish maqsadida ham foydalanadilar. Bog' va ekinzorlarni sug'orishda maxsus tizim ishlab chiqilgan. Yomg'ir kam yog'ishini hisobga olsak, Oks suvlari hosildorlikni oshirishda muhim omil sanaladi.”³

O'zbekiston xonligi

Xivadan sharqqa qarab, 17 kun yo'l yurilsa, yana bir tatar davlati (royaume tatar), Buxoro (Boukhara) joylashgan. Bu davlat ham tili, urf-odatlarini, dini jihatidan Xivaga o'xshash edi, lekin aholisining soni, shaharlarining ko'pligi, boyligi va boshqaruv tizimiga ko'ra, undan ancha yuqori salmoqqa ega edi. Natijada tatarlar poytaxti (la capitale des Tatares) bo'lgan Buxoro, o'sha vaqtda o'zbeklar (Uzbeks) nazdida birinchi o'rinda turgan. Bu shahar xon qarorgohi bo'lgan, u esa butun O'zbekistonning hukmdori (le souverain dans tout l'Uzbekistan) sanalgan. Bu xon ko'p miqdorda oltin tangalar zarb ettirgan edi, chunki u ilgari Koshg'ar hukmdori (souverain de Kachgar) bo'lib, u yerda bu qimmatbaho ma'dan konlari ko'p edi.⁴

¹ Xiva xoni Elbarsxon 1727 – 1740-yillarda hukm surgan. U Xivaning Nodirshohga bo'ysunishiga qadar mustaqil hukm surgan so'nggi o'zbek xoni edi [Soucek 200, 327]. “Persica” (“Nodirshoh tarixi”)da yozilishicha, Elbarsxonning 1739-yilda Nodirshoh bilan qilgan jangi haqida hikoya qilingan. Bu jangda Elbarsxon halok bo'lgan. Undan oldingi Xiva xoni Sherg'ozii (Σιργάζης Χάν) 1721-yilda Xurosonni talon-taroj qilgan edi [Sariyannis 2014, 52].

² Xaritadaagi ma'lumotga ko'ra, “Xiva (*Shiva* – *Χίβα*) – O'zbekiston (*Uzbekiae* – *ὠζμπειγισταν*)dagi shahar, xon (*Chanis*)ning qarorgohi, [odamlar] uni “podshoh” (*Padischahi*) deb ham ataydilar. Odamlar hamma narsada Buxoro (*Buchariae*) o'zbeklari (*Uzbekiis* – *ὠξμπέγδες*) bilan juda o'xshashdirlar. Men u yerdaligimda, hukm surayotgan xonning ismi Elbarsxon (Elbars Chan – *Ελμπαρσχαν*) edi. Uning o'z tangalari bor edi, bu yerda uning mis tangasi tasvirlangan”. Amudaryoning chap qirg'og'ida Xiva yaqinida unga qarashli *κωρλαντ* – *Curlant* (Gurlan), *ὄργενς* – *Orgens* (Urganch), *χαναχά* – *Chanacha* (Xonaqa) va *χαζαρίς* – *Chozaris* (Hazorasp) nomli shaharlar qayd etilgan [Batatzis 1732, No. 12].

³ Xaritada *ὠξος* – *Oxus* daryosi haqida: *Oxus qui oto Midergias* – “Midergias – *μίδεργιας* (Amudaryo) deb ataluvchi Oksus”, – deb yozilgan [Batatzis 1732].

⁴ Xaritadaagi izohga ko'ra, Buxoroning “o'z tangalari bo'lib, ular orasida mazkur hukmdor, ya'ni Abulfayzxon (*Abulfaizchan*) nomidan zarb etilgan sinq oltin tanga

“Xivadan Buxoroga yo'l oldim, – deb yozadi Vatatzis. Yana bir bor Oksning qirg'og'i bo'ylab yo'limizni davom ettirgan holda, 15 kunlik yo'lda shu daryo suvidan ichib keldik. Bu vaqt oralig'ida Oksni kesib o'tdik va So'g'diyona (Sogdiane)ga kirib keldik. Uch kundan so'ng Buxoroga, shu nom bilan ataluvchi xonlik va butun O'zbekiston poytaxtiga yetib keldik. Bu shahar juda katta va mashhur edi. U yerda hokimiyatni Abu-l-Fayz (Αμπουλφεΐς – Aboul Feïz)¹ ismli xon (Le khan) boshqarar edi.”²

Vatatzisga ko'ra, “mashhur Chingizxon (Djenguiz khan) ham Buxorodan chiqib, shimoldagi ko'plab yerlarni o'ziga bo'ysundirgan va Volga bo'yigacha o'z hukmdonligini o'rnatgan. Chingizning zamondoshi³, ammo undan ham ko'p shuhrat qozongan xonlar xoni (le khan des khans), Temurlang (Timour-Leng), *u skiflar tilida Migtemir (Migtemir), Aksak (Axak) va Kurenis (Kureenis) deb atalgan⁴, ko'p tarixchilar, hatto yevropaliklarni ham hayratda qoldirgan. U Chingizni mag'lub etib⁵, Fors shohi (roi de Perse)⁶ bilan jang qilgan, Chaqmoq (la Foudre) laqabini olgan turklar sultoni (sultan des Turcs) Boyazid (Bajazet) bilan ham jang qilib, uning qo'shinini tor-mor etgan, o'zini esa asirga olgan.⁷ Temur aslida Buxorodan uzoq bo'lmagan Samarqand shahridan edi.”⁸

bor edi. Uning suratini [xaritaning] pastki qismida ko'rish mumkin” [Batatzis 1732, No. 9]. Koshg'ar shahriga tegishli izohda esa: “Koshg'ar (*Cascari*), qishloqlari ko'p bo'lgan bosh shahar. Ilgari unda juda ko'p musulmonlar yashaganlar. O'z vaqtida u Buxoro imperiyasidan mag'lub bo'lgan. [Odamlar] u yerdagi qumlardan oltin topadilar”, – deb yozilgan [Batatzis 1732: No. 8].

¹Joniylar sulolasiga mansub Abu-l-Fayzxon Buxoroda 1711 – 1747-yillarda hukm surgan. 1740-yilda u Nodirshohga bo'ysunib, unga qaram bo'lib qolgan [Soucek 2000, 179-180].

²Xaritadagi izohga ko'ra, “Buxoro (*Bucharia – Μπωχαρία*) – kichik shahar emas, O'zbekiston (*Uzbeciae – ωζμπεγισταν*) poytaxti va xon (*Chanis*)ning qarorgohi. Men u yerdaligimda, hukmdorning ismi Abulfayxon (*Abulfaizchan*) edi, odamlar uni “podshoh” (*Padischah*) deb atar edilar. O'zbekiston barcha [aholisi] singari uning dini islom edi.” [Batatzis 1732. No. 9].

³Aslida Amir Temur 1336-1405-yillarda yashagan, Chingizxon esa 1227-yilda vafot etgan.

⁴*... Matnda va inglizcha tarjimada: “called in the Scythian language Migtemir, Axak and Kureenis” (τη Σκυθῶν γλώττῃ Μιγτεμίρ, Αξάκ τε Κουρεένης), ya'ni Amir Temur, Oqsoq va Ko'ragon [Sariyannis 2014, 52]. Bu jumla fransuzcha tarjimada yo'q.

⁵Aslida Amir Temur 1365-yilda Chig'atoyxonning avlodlari Qutlug'-Temur va uning o'g'li Ilyos Xo'jani mag'lub etgan.

⁶Bu yerda Hirot va Xuroson hukmdori G'iyosiddin Pir-Ali II nazarda tutilgan. Amir Temur unga qarshi 1380-yilda yurish qilgan.

⁷Amir Temur turk sultoni Boyazidni 1402-yilda bo'lib o'tgan Anqara jangida mag'lub etgan.

⁸Xaritada bu haqida shunday yozilgan: “Samarqand (*Samarcanda – Σαμαρκαντ*) – O'zbekiston (*Uzbeciae – ωζμπεγισταν*)dagi shahar, Temurbek (*Tamerlanis – Ταμερλάνι*)ning ota shahri, turkchada uni Mir Temur shoh Ko'ragon (*Mir Timur*

“Buxoro xonligida oldin mustaqil davlat boʻlgan viloyatlar ham bor edi. Shimolda Turkiston (Turkestan)¹, undan ancha masofada, sharq tomonda Koshgʻar², janubda esa Balx (Balkh) va Badaxshon (Badakhchan)³ joylashgan boʻlib, ularning hududlari umumlashtirilgan holda “Oʻzbekiston” deb atalgan.⁴ Badaxshonda qimmatbaho yoqut toshlari (rubis balais) topilgan edi.⁵ Xiva, Buxoro va Turkiston men yuqorida aytib oʻtgan ulkan tekislikda joylashgan.”

Buxoro aholisi teridan chiquvchi qurtlar kasalligiga chalangan ekan. “Menimcha, – deydi Vatatzis, qurt ular ichayotgan iflos suv taʼsirida paydo boʻladi. Buxoroda ichiladigan suv Qorasuv (Qarasou) daryosidan oqib keladi. Bu suv dalalar va daraxtlarni sugʻorish uchun ham ishlatiladi. Oks irmogʻi, yaʼni Qorasuv yomgʻirlarning oʻrnini bosadi.⁶ Ariqlardan biri bu suvni Buxoroga olib boradi. Bu daryo suvi bilan shahar havzalarini toʻldiradilar: bu havzalar yoki hovuzlar juda katta boʻlib, ularni kichik koʻllar deb ham atashadi.

schah curcan – *ΜηΤεμip άξάκ κωρεγέν*) deb ataydilar” [Batatzis 1732: No. 10].

¹Xaritada Sirdaryo (*σιρδεργιας* – *Sirdergias*) havzasining yuqori va oʻrta qismlari TOUPKISTAN, yaʼni Turkiston nomi bilan belgilangan. Xarita ichidagi unga tegishli boʻlgan izohda esa shunday yozilgan: “Burungi zamonlarda bu mashhur viloyat edi, unda yashovchi musulmonlar baʼzan *Sartae* – *σαρται* (sartalar) deb atalar edilar. [Hozir] ular qaysi birining quroli kuchliroq boʻlishiga qarab, *Casacis* – *καζακων* (qozoqlar) yoki *Sondosides* – *κονδοσιδων* (qoraqalmlar)ga boʻysunadilar” [Batatzis 1732].

²Xaritada Koshgʻar (KAZKAR) shahriga shunday izoh berilgan: “Koshgʻar (*Cascari* – *Καζκάρι*) bu mulkda shaharlar va qishloq yerlar koʻp. Unda koʻp sonli musulmonlar yashaydi. Ilgari ular Buxoro imperiyasiga boʻysunganlar. U yerdagi qumlarda oltin topilgan” [Batatzis 1732. No. 8].

³Xaritada Amudaryoning yuqori oqimida asosiy oʻzan (Panj)ga uning oʻng irmogʻi (Vaxsh)ning quyilish yerida MPEΔEEAN – *Badachschan* (Badaxshon) shahri joylashgan. Unga tegishli izohga esa shunday yozilgan: “Badaxshon (*Badachschan* – *Μπεδεξάνι*) – bu shahar ilgari Buxoro imperiyasiga boʻysungan, unga qarashli boʻlgan togʻlar yonida joylashgan [Batatzis 1732. No. 11].

⁴Bu maʼlumotlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, V.Vatatzisning “Oʻzbekiston” mamlakati butun Oʻrta Osiyo mintaqasini, shu jumladan, Turkiston, Koshgʻar, Balx va Badaxshonni oʻz ichiga olgan. Yuqorida zikr etilgan Xiva xonligi ham Oʻzbekiston tarkibiga kirgan (113-betga qarang). Shuning uchun bu mamlakat xaritadagi izohlarda *Μπωχαρικῆς ἐξωσίας* – *imperio Bucharico* – “Buxoro imperiyasi” deb ham atalgan [Batatzis 1732].

⁵Xaritadagi izohga koʻra, Badaxshon togʻlaridan qimmatbaho toshlar olib kelinadi, bu toshlar turkchada Lal (*Lal* – *Λάλ*), yunoncha va italyanchada *Balasia* (*Μπαλασία*), boshqa xalqlarda esa *Rubis Balais* (*ρωμπιμπαλέ*) deb atalgan. Shahar yaqinida unga qarashi boʻlgan boshqa togʻlar ham bor, u yerdan [boshqa turdagi] tosh olib kelinadi, turklar uni Lazward, yevropaliklar esa Lapis Lazuli deb ataydilar” [Batatzis 1732. No. 11].

⁶Qorasuv – Zarafshon daryosining qadimgi nomi. V.Vatatzis xaritasiga koʻra, *καρασού* – *Carasui* (Qorasuv) daryosi *χοτζάνδ* – *Chogiand* (Xoʻjand) shahridan janubdagi togʻlardan oqib chiqib, Samarqand va Buxoro shaharlaridan oʻtadi va *ὠξος* – *Oxus* (Amudaryo) daryosiga quyiladi. Bu daryoning quyi oqimida uning chap qirgʻogʻida gorod *καρακολ* (Caracol) nomli shahar joylashgan [Batatzis 1732].

Odamlar ulardan idishlarini botirib, suv olib, kir yuvadilar, va barcha kir, iflos, chiqindi suvlarni o'sha yerning o'ziga to'kib tashlaydilar. Havzaning tagiga qalin loy qatlamlar to'planib qoladi ularni hech qachon olib, chiqarib bo'lmaydi. Ko'm-ko'k o'tlar suvning yuzasida suzib yuradi, chunki bu yovvoyi o'tlar hech qachon hovuzning butunlay qurishiga yo'l qo'ymaydi. Odamlar ularning kamayganini bilganlarida hovuzlarni yana yangi suv bilan to'ldiradilar. Yuqorida aytilgan qurtlar ana shu suvda paydo bo'ladi. Buxoro shahrining atrofida yashovchi barcha aholi va qishloqlardagi oddiy odamlar hech qachon bu hovuzlarning suvidan ichmaydilar, lekin Qorasuv daryosi suvidan xo'jalik ishlarida foydalanadilar. Shuning uchun shahar tashqarisidagi aholi bu qurt kasalligiga chalinmagan.”¹

Bir tomondan Buxoro xoni (khan de Boukhara) va barcha saroy a'yonlari faqatgina bevosita Qorasuv (Qara-sou)dan tuyalar va eshaklar ustiga ortib tashib kelingan suvdan foydalanadilar, bu kasallik saroyda kam kuzatilgan. “Men Sug'diyona (Sogdiane)²ning boshqa qismlariga sayohat qilib va Buxoroda bir muncha muddat yashab, – deb yozadi Vatatzis, barcha bo'sh vaqtlarimda bu kasallikka e'tibor qaratdim. Menda bu kasallik sodir bo'lmadi, chunki men doim daryodan olingan suvdan ichardim. Buxoroga kelishimdan ikki yil avval bu shahar qozoqlar tomonidan juda qattiq talofat ko'rgan va qamal qilingan edi”.³

Qadimgilar ariqlar qaziganlar. Shu paytda barcha havzalar qurib qolgan, bir tomchi ham ortiqcha suv yo'q edi. Odamlar juda ham ilojisiz qolganlaridan so'ng havzalar ichidan chuqur quduqlar qaziganlar va namlikni siqib chiqarib, chanqoqlarini qondirganlar. Yoz faslida quyosh yondirgudek bo'lib qizdirar edi. Havzalardagi loyliklarni ham bug'latar edi, ularni quritib yuborar edi. Qozoq qabilalari bu yerda o'rnasha olmasliklarini bilgach, bu yerlarni tark etdilar. Shunda Buxoro ahli ariq suvini qaytadan oqizib, o'z havzalarini to'ldirdilar. Chunki ilgari ular ichish uchun shu suvdan foydalanar edilar va kundalik turmushda ishlatar edilar.

“Ta'kidlash kerakki, – deydi Vatatzis, – keyingi ikki yil davomida qurt kasalligiga hech kim chalinmadi. Bu dalil kuzatishlarim asosida yuqorida aytib o'tilgan kasallikning kelib chiqish sababini

¹ Xaritadagi izohga ko'ra, Buxoroda “juda ham zararli qurtlar bo'lib, ular inson tanasining turli yerlaridan yuzaga chiqadi, kasallar ularni har kuni ikki-uchtalab yulib tashlaydilar” [Batatzis 1732. No. 9].

² Matnning pastrog'ida keltirilgan muallif so'zidan ma'lum bo'ladiki, Sug'diyona (Sogdiane) deganda, u Buxoroni nazarda tutgan [Legrant 1886, 118]. V.Vatatzis xaritasida “Sug'diyona” (Sogdiane) so'zi uchramaydi.

³ V.Vatatzis Buxoroda bo'lgan vaqtida ham qozoqlar Buxoroni qamal qilganlar, lekin shaharni qo'lga ololmaganlar.

ochiq-oydin isbotlaydi. Buxoroda bo'lgan kezlarimda yuqorida tilga olingan qozoqlar shaharni qamal etish uchun ikkinchi marta keldilar, qozoqlarning soni 100 ming ham yetmas edi. Kim biladi, bu uzoq vaqt, ya'ni 4 oy davom etadigan qamal¹ azob-uqubatlariga ular bardosh bera olarmikan? Buni yakka Xudoning o'zi biladi! Ochlikdan bolalar, keksalar qirilib ketadi, deb qo'rqaman. Oxir-oqibat men ham jarohat oldim, so'ng ichburug' (dizenteriya) kasalligiga chalindim. Shu yerdagi darvish tabib yordamida davolandim. Buxoroda shunday sarguzashtlarni boshimdan kechirdim. Bu safar ham qozoqlar Buxoroni qo'lga kirita olmadilar, qamal qilishni to'xtatdilar, shahar ulardan xalos bo'ldi va biz yana ozodlikka chiqdik. Yo'llar ochildi, har kim istagan joyiga ketishi mumkin bo'ldi."

Nodirshoh huzurida

Vatatzis kelgan yo'lidan qaytib, 3 kundan so'ng Oksga yetib keladi va mol tashuvchi qayiqda oqim bo'ylab suzib, Xivaga yetib keladi va u yerda bir muddat qoladi. Baxtli tasodif tufayli xivaliklar ham, turkmanlar ham forslar bilan do'stona aloqada edilar. Bu imkoniyatdan foydalangan holda Vatatzis Fors shohi (chah de Perse) huzuriga ketayotgan xivalik bir elchiga qo'shib oladi. Ular birga Xivani tark etib, Fors (Perse) chegaralarigacha yoyilgan qumli cho'lni kesib o'tdilar va 14 kundan so'ng Forsga, ya'ni Xuroson (Khorassan) chegaralariga yetib keldilar. Bu yerda sharqdan Hindistongacha cho'zilgan Taurus (Taurus) tog' tizmasi² yonbag'rida Bob-Arab (Bab-Arab)³ nomli qal'a bor edi. Bu tog' bulutlargacha bo'y cho'zgan, katta viqorni aks ettirar edi. Bu yerda jarliklar, daralar, katta g'orlar va o'rmonlar bor edi. Ba'zi odamlar g'orlarda xuddi qishloqdagidek o'rnatib kun kechirar edilar. Bob-Arab qal'asining chap va o'ng tomonlarida Taurus yonbag'rlarida katta-kichik qishloqlar ko'p edi. Bu ma'muriy hudud suvning tiniqligi, havoning musaffoligi bilan juda tanilgan bo'lib, unda tezoqar soylar oqar edi. Bu yerlarda qushlar va kiyiklar ko'p edi, o'z navbatida ovchilar ham yetarli edi. Bu yerda turli mevalar yetishtiriladi. Bug'doy hosili shu qadar mo'l bo'lar ediki, uning katta qismi o'rilmadan qolib ketar edi. Mahalliy aholi, erkaklar va ayollar, juda jasur bo'lib, ko'rinishi qotmadan kelgan edi. Ular muntazam ov bilan shug'ullanib, jangga tayyorgarliklarini saqlab turar edilar. Chunki qo'shni turkman qabilalari bilan urush-

¹ Birinchi qamal taxminan 1725-yilda bo'lgan edi [Sariyannis 2014, 53]. Demak, ikkinchi qamal 2 yildan so'ng, taxminan 1727-yilda bo'lgan.

² Bu yerda Xuroson va Hindukush tog'lari nazarda tutilgan.

³ Xaritada bu qal'a *μπαραρτ* – *Babart* (?) deb atalgan, u Xuroson tog'larining shimoliy yonbag'rida TETZENT (Tejen) nomli hududda joylashgan [Batatzis 1732].

janjallar tez-tez bo'lib turar edi. Bob-Arab ma'muriy hududi ulkan Xuroson viloyati (province du Khorassan)ga tegishli edi. Bu yerlar Nodirshoh (Nadir Chah)ning yurti edi, chunki u Bob-Arabdan 6 soatlik yo'l masofada joylashgan Kelbkend (Kelbkend) qishlog'ida tug'ilgan. Nodirshoh o'z yurtini afg'onlar zulmi (domination afghane)dan xalos etib, boshqa millat kelgindilarini quvib chiqardi. Usmonlilar (Ottomans)ning ham ko'plab lashkarlarini mag'lub etdi. Buning evaziga forslar (Persans) uni shoh (roi) deb e'lon qildilar. O'tmishdagi Aleksandr (Alexandre) kabi, u Hindistonni ham qo'lga kiritdi va hukmdorlarni asirga oldi. Hindiston markazi Jonobod (Djanabad) shahrida u sulton (empereur) deb e'lon qilindi, va tangalarda uning unvoni "shohlar shohi" (roi des rois) deb zarb etila boshlandi. U shunday ulkan davlatni butun boyligidan mahrum qilib, Forsning o'lponini qaytarib oldi. Nodirshoh Buxoro xonligi (khanat de Boukhara)ni ham o'ziga bo'ysundirib, Xivaga qaqshatqich zarba berdi va u yerda ham o'z hukmronligini o'rnatdi. U Gurjiston (Géorgie)ni ham Fors mustamlakasiga aylantirdi.

Vatatzis yozadiki, "Nodirshohning qilgan buyuk g'alabalarini, va shon-shuhratini unga bag'ishlagan sahifamda batafsil hikoya qilib berdim"¹.

Vatatzis Bob-Arabdan yana yo'lga chiqib, Mashhad (Mechhed) shahriga yo'l oldi. U Taurus tog'larining qorli va muzli cho'qqilaridan oshib o'tib, yo'lini Mashhadga davom ettirdi. Bu shaharga yetishdan oldin, Fors tarixidagi afsonaviy shaharlardan biri Kelat (Kelat)ni tomosha qildi. Bu dunyodagi eng mustahkam va misli yo'q qo'rg'onlardan biri edi. U g'oyat baland tog' ustida joylashgan, uning qoyatoshdan o'yilgan tik devorlarida birorta ham daraxt yo'q, xuddi ma'dandan qilingan devorlardek. Bu tog'da 40 dan 50 tagacha aylana yo'llar bor, unga esa faqat 2 ta o'nqir-cho'nqir yo'l orqali kirish mumkin. Qolgan yo'llar yer qimirlaganda toshlar bilan ko'milib, ustiga tuproq cho'kib qolgan ekan. Kelatda barcha ne'matlar mavjud, dalalarda o'sayotgan sabzavotlar bor ekan, chetdan biron narsa keltirishga hojat yo'q. Nodirshoh bu shaharga alohida ahamiyat berib, Hindistondan olib kelgan boyliklar evaziga shaharni qayta ta'mirlatdi, va o'zining barcha boyliklarini shu yerda saqlar edi.

Kelatdan yo'lga chiqib, Vatatzis Bob-Arabdan 6 kunlik yo'l masofada joylashgan Mashhad shahriga yetib keladi. Mashhad kattaligi bo'yicha Isfahon (Ispahan)dan keyin ikkinchi o'rinda

¹ Yunon tilida yozilgan "Nodirshoh sirati" ("Biographie de Nadir chah") yoki "Nodirshoh tarixi" ("Histoire de Chah-Nadir") nomli bu asar bizning vaqtgacha saqlangan va nashr qilingan. Uning yana bir nomi Persica [Vasileios Vatatzis 1939].

turar edi. Xuroson hukmdorining qarorgohi shu yerda edi. Forslar Mashhadni muqaddas shahar deb hisoblar edilar. Bu yerda Imom Ali Rizo (imam Ali Riza)ning qabri joylashgan bo'lib, odamlar Forsning uzoq yerlaridan shu muqaddas joyni ziyorat qilish uchun kelar edilar. Bu joyni ziyorat qilganlar yuksak martabaga ega bo'lar edi. Ularni "mashhadchi" (*mechhedji*) deb atar edilar, bu esa turklardagi *hoji* (*hadji*) unvoniga to'g'ri kelar edi. "Imom Ali Rizoning qabri va masjidiga to'xtaydigan bo'lsak, – deydi Vatatzis, men ularni "Nodirshoh sirati" ("Biographie de Nadir chah") kitobimda butun boylig-u xazinalari to'g'risida batafsil tasvirlaganman. Mashhadda ko'rganlarimdan tashqari Nodirshoh haqida yana ko'p narsalar aytishim mumkin, ammo yana takror aytaman, uning huzurida yashab, men uning to'liq tarixini yozdim. Men Nodirshoh bilan ko'p marta maxfiy suhbatlar qurishga muyassar bo'ldim, u hatto maxsus farmon chiqarib, mening sayohatim xarajatlariga moddiy yordam berdi."

Mashhadni ham tark etib, Vatatzis G'ilon (Ghilan)ga jo'nab ketadi. Yo'lda u Xurosondagi Ozodvor (Azadwar) nomli katta shahardan o'tdi, u yerdan muhim ahamiyatga ega qo'shni Nishopur (Nichabour) shahriga ham o'tdi. Bir necha kun yo'l yurib Sari (Sary) shahriga keldi. U yerda Mozandaron (Mazenderan)ni borib ko'rish ishtiyoqi bilan G'ilonga borayotgan yo'lidan burilib, Taurus (Taurus) tog'larini yana bir kesib o'tdi, daralar va o'rmonlardan tinmasdan 4 kun yo'l yurib, manzilga yetib keldi. Mozandaron Forsning muhim viloyatlaridan biri bo'lib, uning sharqida Astrobod (Esterabad) shahri va shu nom bilan ataluvchi yana bir viloyat joylashgan. Bu ikkala viloyat Kaspiy dengizi bilan tutashgan edi. Bu yerda yozda havo harorati Efiopiya (Ethiopie)dagidan ham issiq bo'lar ekan. Yozda ko'p odamlar dam olgani qo'shni tog'larga boradilar. Astrobod viloyati mahsulotlari orasida shakarqamish ko'p miqdorda yetishtiriladi. Vatatzis Mozandaronning ma'muriy markazi bo'lgan Barfurush (Barfourouch) nomli katta shaharda to'xtab o'tadi. U yerga yo'l Kaspiy dengizining o'ng qirg'oqlari bo'ylab ketgan edi.

Vatatzis safarnomasining birinchi qismida G'ilon haqida ma'lumot keltirgan edi.¹ Unda shaharlar ko'p bo'lib, ular ichida Resht (Recht) – eng yirigi edi. G'ilon bir tomondan Kaspiy dengizi, boshqa tomondan Fors tog'lari bilan tutashgan edi. Havo harorati

¹ Vatatzis o'zining dastlabki sayohatlarida Eronning Darband, Shirvon, G'ilon, Qazvin, Qum, Qashan, Isfahon kabi shahar va viloyatlarida bo'lib, ular haqida batafsil ma'lumot keltirgan. Uning bu yerlar haqidagi ma'lumotlarini maxsus maqolada bayon etish niyatidamiz.

juda yuqori bo'lib, odamlar kamqonlikdan azob chekar edilar. Yoz faslida sho'r yerlarning bug'lanishi sog'liqqa ziyon keltirar edi. Qishda tuman ko'p tushsa-da, yerlarning katta qismi hosildor edi. Bu yerda Forsdagi eng sifatli ipak yetishtirilar edi. Guruchdan shu darajada ko'p hosil olinar ediki, uni hatto otlarga ham yem qilib berar edilar. "Bu viloyatda ko'plab limon, apelsin, zaytun va boshqa mevali bog'larni ko'rdim, – deb yozadi Vasilio Vatatzis. Gullardan ayniqsa nilufarlarning yil bo'yi o'sishi juda go'zal manzara kasb etar edi." G'ilonga savdogarlar muntazam ravishda kelar edilar. Resht general Levasov boshqaruvi ostida edi, chunki o'sha paytda butun Kaspiy dengizi atroflaridagi yerlar Rossiya imperatori Pyotr I tomonidan egallangan edi. Faqat hali ruslar qo'lga kiritib ulgurmagan Mozandaron va Astrobod yerlari bundan istisno edi. Vatatzis Reshtga Nodirshoh bilan bo'lgan maxfiy suhbatdagi gaplarni general Levasovga yetkazish uchun ham kelgan edi.

G'ilondan Vasilio Vatatzis dengiz orqali Astraxanga, u yerdan esa Moskvagacha sog'ligi yaxshi bo'lgan holda yetib keladi. Moskvadagi kichik tanaffusdan so'ng u Yevropaning boshqa shaharlarini ko'rish ishtiyoqida Riga (Riga)ga boradi. So'ngra Berlin (Berlin) va boshqa shaharlarda bo'lib, Hollandiya (Hollande) orqali Amesterdam (Amsterdam)ga yo'l oladi. Hollandiyadan Fransiya (France)ga o'tib, Parij shahrida mehmon bo'ladi. Parijdan Vatatzis London (Londres)ga yo'l oladi. U yerdan mashhur Oksford universiteti (université d'Oxford)ga borib, unga Markaziy Osiyo (l'Asie centrale) mintaqasi tasvirlangan xaritasini sovg'a qiladi. Universitet olimlari bu tuhfa uchun unga katta minnatdorchilik bildiradilar. Vatatzisning yozishicha, "Oksfordda juda boy kutubxona bo'lib, menimcha, bunga o'xshash kutubxona dunyoda boshqa bo'lmasa kerak".

So'ngra Vatatzis Angliya (Angleterre)ni tark etib, yana Rossiyaga qaytadi. Yo'lda u Xelsinki (Helsingor) va Kopenhagen (Copenhagen)ni ko'rib o'tadi, Peterburg (Pétersbourg) orqali Moskvaga yetib boradi. Aynan shu yerda Vasilio Vatatzis mazkur safarnomaning ikkinchi qismini yozib tugatadi [Legrand 1886, 208-225].

Xulosa

Shunday qilib, yunon sayohatchisi Vasilio Vatatzisning 1727-1730-yillarda Kaspiy va Orol dengizlari atroflaridagi mamlakatlarga qilgan sayohatining yunon tilida yozilgan safarnomasi O'rta Osiyoning o'sha davrdagi tarixi bo'yicha qimmatli

manbalardan biri hisoblanadi. Shuni aytish joizki, XVII – XVIII asrlarda Turkiya, Eron va Hindistonga ko‘plab yevropaliklar sayohat qilganlar. Ularning safarnomalarida O‘rta Osiyo haqida ham ma‘lumotlar topish mumkin. Lekin o‘sha davrda O‘rta Osiyoga maxsus sayohat uyushtirgan sayohatchi faqat Vasilio Vatatzis edi. Shuning uchun uning safarnomasida keltirilgan ma‘lumotlar alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Safarnomada keltirilgan ma‘lumotlarning ishonchliligi hech qanday shubha uyg‘otmaydi, chunki Vasilio Vatatzis unda o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shaharlar va yerlar, xalqlar va qabilalar, o‘zi boshidan kechirgan voqealar haqida so‘z yuritgan. Bu manbaning asosiy mazmuni 1886-yilda fransuz tilida nashr etigan bo‘lsa ham, safarnoma va undagi qimmatli ma‘lumotlar shu vaqtgacha O‘rta Osiyo tarixi tadqiqotchilarining e‘tiboridan chetda qolib kelayotgan edi. Vasilio Vatatzis safarnomasining to‘liq ilmiy izohlangan tarjimasini nashrga tayyorlash hozirgi kunda ilm-fan oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Vasilio Vatatzisning asosiy qilgan geografik kashfiyotlaridan biri bu Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyilishini aniqlaganligidir. Ungacha Yevropa olimlari bu daryolar Kaspiy dengiziga quyiladi, deb o‘ylaganlar. Orol dengizining alohida suv havzasi ekanligini esa bilmaganlar. Vasilio Vatatzis yevropaliklardan birinchi bo‘lib, O‘rta Osiyoning aniq va ishonchli xaritasini chizgan va ilmiy jamoatchilikka taqdim etgan.

Vasilio Vatatzis safarnomasidagi O‘rta Osiyo tarixiga oid ma‘lumotlardan eng muhimi shundan iboratki, unda butun O‘rta Osiyo mintaqasi, shu jumladan, Xorazm (Xiva xonligi), Turkiston (Qo‘qon xonligi), Koshg‘ar (Sharqiy Turkiston), Buxoro, Samarqand, Balx va Badaxshon (Buxoro xonligi), yunon tilida *ωζμπεριςταν* (Özbekistan), lotin tilida esa *Uzbeciae* (Uzbekia) mamlakati deb atalgan. Vatatzisning 1732-yilda Londonda nashr etilgan xaritasida esa bu mamlakat *ΩΖΜΡΕΓΙΣΤΑΝ*, shuningdek, *Μπωχαρικῆς ἐξωσίας* – *imperio Bucharico* – “Buxoro imperiyasi” deb ham atalgan. Bu esa “O‘zbekiston” nomi tarixiy ildizlarga ega ekanligidan va bu nom XVI – XVIII asrlarda butun O‘rta Osiyo mintaqasiga nisbatan ishlatilganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

Английские путешественники – *Английские путешественники в Московском государстве в XVI в.* 1937. Перевод с английского Ю.В.Готье. Введение Г. Новицкого. Москва: ОГИЗ.
Беневени – Посланник Петра I на Востоке. 1986. *Посольство Флорио*

- Беневени в Персию и Бухару в 1718 – 1725 годах. Москва: Наука.
- Бернье – Франсуа Бернье. 2008. *История последних политических потрясений в государстве Великого Могола*. Перевод с французского Б.Жуковецкого, М.Томара и Ю.Муравьева; с вступительной статьей и под ред. Ю.И.Семенова. Москва: Гос. публ. ист. библиот. России.
- Камолиддин 2005 – Камолиддин Ш.С. “Василио Ватаченинг Ўрта Осиё харитаси ҳақида”. *Moziydan sado* (Эхо истории, Echo of history) 3(27): 36 – 41.
- Камолиддин 2020 – “Ўзбекистоннинг тарихий хариталари”. *INFOLIB ахборот-кутубхона* 3: 54 – 61.
- Камолиддин 2020 – Камолиддин Ш.С. “Ўзбек” ва “Ўзбекистон” атамалари ёзма манбаларда”. *INFOLIB ахборот-кутубхона* 4: 62 – 65.
- Моисеев 1991 – Моисеев В.А. *Джунгарское ханство и казахи*. XVII – XVIII вв. Алма-Ата: Гылым.
- Тўраев 2021 – Тўраев Ш.Р. *Ўрта аср Европа сайёҳлари асарларида Ўрта Осиё тарихи ва маданиятининг ёритилиши*. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. Қарши.
- Aggelomati-Tsougaraki 2000 – Eleni Aggelomati-Tsougaraki. “Ελληνικά περιηγητικά κείμενα (16^{ος} – 19^{ος} αι)”. *Μεσαιωνικά και Νέα Ελληνικά* 6: 155 – 180.
- Axworthy 2006 – Michael Axworthy. “Basile Vatatzes and his History of Nader Shah”. *Oriente Moderno* 86 (2): 331 – 343.
- Axworthy 2006 – Michael Axworthy. *The Sword of Persia: Nader Shah, From Tribal Warrior to Conquering Tyrant*. London; New York: I.B. Tauris, New York: Distributed by Palgrave Macmillan.
- Bagrow 1985 – Leo Bagrow. *History of Cartography*. Revised and enlarged by R.A.Skelton. Second edition. Chicago: Precedent Publishing inc.
- Bazin 1780 – Pere Louis Bazin. “Memoires sur les Dernieres Annees du Regne de Thamas Kouli-Kan et sa Mort Tragique, Contenus dans un Lettre du Frere Bazin,” in *Lettres Edifiantes et Curieuses Ecrites des Missions Etrangeres*, vol. IV, ed. C. Le Gobien and Y. M. M. T. Querbeuf (Paris: Chez J. G. Merigot, 1780), 277 – 321; “Seconde Lettre Contenant les Revolutions qui Suivrent la Mort de Thamas Kouli-Khan,” in *Lettres Edifiantes et Curieuses Ecrites des Missions Etrangeres* IV: 322 – 364.
- Chardin 1927 – Sir John Chardin's *Travels in Persia with an introduction by Sir Persy Sykes*. London: The Argonaut Press.
- Golden 1992 – Peter Golden. *An Introduction to the History of the Turkic Peoples*. Ethnogenesis and State-Formation in Medieval and Early Modern Eurasia and the Middle East. *Turcologica* 9. Wiesbaden: Harrassowitz.
